

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Ingliz tilini o'rgatishda o'yinlarning o'rni

Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar

Muallif: Ro'ziyeva Fariza

Samarqand davlat chet tillari institute

***Anotatsiya.** Ushbu maqola ingliz tilini o'rgatishda o'yinlardan foydalanish muhimligiga bag'ishlangan. Maqolada ingliz tili darslarini o'qitishda o'yinlarning roli asoslanadi. Darslarni mashg'ulotlar orqali o'rgatish materiallar, buyumlar, rasmlar, o'yinchoqlar, o'yinlar, suhbat qismlari va boshqa rekvizitlarni qulay saqlash va osongina olishni talab qiladi. Maqolada ingliz tili darslarida foydalanish uchun o'yinlarning bir nechta misollari keltirilgan. Ingliz tili darslarida ushbu interfaol usullardan foydalanish til o'rganishni yanada foydali va mazmunli qiladi. Darslarda o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan faol o'yinlardan foydalanish darsda qo'yilgan maqsadga erishishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar.** Raqobat, tadqiqot, fikr, idrok, qo'shiq, aql, jismoniy harakatlar, metodika.*

***Abstract.** This article is devoted to the importance of using games in teaching English. The article focuses on the role of games in teaching English classes. Teaching lessons through activities requires easy storage and easy access to materials, objects, pictures, toys, games, conversation pieces, and other props. The article presents several examples of games for use in English classes. Using these interactive methods in English classes makes language learning more useful and meaningful. The use of active games aimed at developing students' thinking in lessons helps to achieve the goal set in the lesson.*

***Keywords.** Competition, research, thought, perception, song, intelligence, physical activity, methodology.*

Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passive o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi [3,1].

Tabiiy tilni o'zlashtiruvchi sifatida ajralib turadigan xususiyatlariga ega bo'lgan bolalar har doim jiddiy o'rganishga duchor bo'lolmaydilar. Shunday qilib, o'qituvchilar o'z darslarini ushbu turdagi o'quvchilarga moslashtirish uchun doimiy ravishda o'zgartirishlari kerak. O'yinlar qiziqarli va o'quvchilarga turli yo'llar bilan foyda keltiradi deb hisoblansa-da, o'yinlar bolalar uchun eng mos mashg'ulotlarga aylandi. Biroq, sinfda nimani o'rgatish to'g'risida qaror qabul qilishda faqat o'qituvchilar mas'ul bo'lganligi sababli, o'qituvchilarning o'yinlar haqidagi fikrlarini o'rganish faoliyati sifatida o'rganish yaxshiroqdir. Shu sababli, ushbu tadqiqotning tadqiqot maqsadlari o'qituvchilarning o'yinlardan foydalanishdagi asosiy maqsadiga, o'yinlarning o'qitish vositasi sifatida samaradorligini idrok etishiga va o'qituvchilar tomonidan yosh bolalar darslarida foydalanish uchun o'yinlarni tanlashda hisobga olingan mezonlarga qaratilgan. Tadqiqotni o'tkazish uchun yondashuv sifatida aralash tadqiqot metodologiyasi qo'llanildi. Keyin o'qituvchilar o'yinlar yosh bolalarga ingliz tilini o'rgatish uchun samarali vosita ekanligiga rozilik bildiradilar. O'yinlarni tanlashning asosiy omillariga kelsak, o'yinlar mazmuni, dizayni va maqsadiga mos bo'lsa foydalanilishi aytiladi. Undan so'ng o'yinlar ijtimoiy aloqa va guruh ishlarini ta'minlasa qo'llanilishini bildiruvchi omil, oxirgi omil esa ingliz tili o'qituvchilari tomonidan yosh bolalar darslarida til o'yinlaridan foydalaniladi.

Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki

yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar; - multfilmlar; Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

- rol ijro etish (role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi zarur [1,2].

Ayniqsa, chet tili darslarini turli xil o'yinlar yordamida olib borish juda samarali usul ekanligini ko'plab o'qituvchilar tasdiqlaydilar. O'yinlarni rang-barang shartlar yoki jamoaviy musobaqalar ko'rinishida o'tkazish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. O'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilarni ham o'ziga jalb qilishda yordam beradi. Bu kabi o'yin va musobaqalarni har bir o'qituvchi o'z metodikasi va fantaziyasidan kelib chiqqan holda tashkillashtirishi mumkin. Bu usul darsning odatdagi kabi zerikarli emas, balki qiziqroq va ko'tarinki ruhda o'tishini ta'minlaydi. Misol uchun, ingliz tili bilan bog'liq bo'lgan o'yinlardan biri bu-"So'z o'yini"dir. O'yinni o'qituvchi istalgan bir inglizcha so'zni aytib boshlab beradi va o'quvchilar birin ketinlik bilan bundan oldingi so'z qaysi harfda tugagan bo'lsa, o'sha harf bilan boshlanadigan boshqa bir so'z aytishi kerak bo'ladi. So'z ayta olmagan o'quvchilar o'yinni tark etadi. Va shu tariqa, o'yin oxirida 1 nafar o'yin ishtirokchisi qolgunga qadar davom etadi. Rag'batlantirish sifatida, g'olib o'quvchiga sovg'a taqdim etish ham mumkin. Bu juda samarali usul. Oddiy daftar, rangli qalam, albom yoki shokolad, pechenye va shu kabi istalgan narsalardan birini sovg'a sifatida berish mumkin. Bu orqali o'quvchilarning ishtiyoqi yanada oshadi, sovg'aga ega chiqish istagida darsda faol qatnashadi va qaysidir ma'noda, o'zi bilmagan holda mavzuni ham o'zlashtiradi, yangi bilimlar o'rganadi. Qolaversa, odatiy darslarga qaraganda, bu kabi darslar o'quvchi xotirasida yaxshi taassurot qoldiradi va tabiiyki, bundan darslarda o'rgangan

bilimlarini, ham oson va tez eslab qoladi, ham xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi.

"Last man standing" (oxirgi qolgan odam)

Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin o'quvcilarga o'ylash uchun biroz vaqt beriladi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganda qolgan o'quvchilar o'zlari so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun ko'ptokcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birona mavzu tanlash kerak bo'ladi. Masalan, Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo [3,1].

"Charades" o'yini

Charades o'yinida harakatlardan foydalaniladi. Bu o'yin o'quvchilar uchun zerikkan va uyqisi kelgan vaqtlarda juda qo'l keladi. O'yinda ikki guruhga bo'linadi va har bir jamoadan bir o'quvchi so'z yozilgan qog'ozni tanlaydi va harakat orqali ifodalab beradi. Jamoadagilar esa uch daqiqa ichida o'sha so'zni topishi kerak bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun, bir ball beriladi. O'n ball jamlagan jamoa g'olib hisoblanadi [3,2].

"Tennis" o'yini

Bu o'yinning maqsadi o'quvchilarning tezligini oshirishdir. Bu o'yin zanjir o'yiniga o'xshaydi va tanlagan mavzu doirasida bo'lib o'tadi. Bunda aytilgan so'zning so'nggi harfiga yangi so'z aytilishi kerak. Masalan, mavzu nomi "Animals" bolsa, mavzudan chetlashmagan holda "Tiger" so'zi bilan boshlansa, ikkinchi ishtirokchi "Rabbit" deb davom ettiradi. Shu tariqa o'yin davom etadi. O'yin davomida to'xtab qolgan o'quvchi 5 daqiqa javob bera olmasa, o'yindan chetlashtiriladi va qolgan o'quvchilar bilan o'yin davom ettiriladi. O'yinni sinf bilan ya'ni ko'pchilik bilan o'ynash juda qiziqarli va maroqli bo'ladi [2,28].

"Back to back" o'yini

Bu o'yin o'quvchi xotirasini charxlaydi va eshitish qobiliyatini o'stiradi. Stolga rang-barang rasmlarni chap tomoni bilan qo'yib chiqamiz, ikki o'quvchini doskaga chiqaramiz va ularning birovidan rasmlarni tanlab olishini so'raymiz, ikkinchi o'quvchiga ko'rsatmasdan ular ikkita bir-biriga teskari stolga o'tiradilar.

Rasmni ushlab turgan bola topishmoq usulda unda nima tasvirlanganini aytadi va ikkinchi o'quvchi eshitgan so'zlarni qog'ozga tushiradi. Eshitganlarini yaqqol va aniq tushirsa o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yin yuqori sinflar uchun ham juda qiziqarli [4,2].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu o'yinlarni darsingizda qo'llab ko'ring va erishgan natijalaringiz hamda tajribangizni hamkasblaringiz bilan o'rtoqlashing. O'yinlardan foydalanishda ularni bolalarning bilimiga va yoshiga qarab o'zgartirishimiz, ya'ni osonlashtirish yoki murakkablashtirish mumkin. Ushbu yuqorida keltirilgan o'yinlarning maqsadi, o'quvchilarning xotirasini kuchaytirish, aqliy salohiyatini oshirish, tezkorlik, ziyraklik, yangi so'zlarni oson esda saqlash va eng asosiysi darsni mazmuli tashkil qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova Madina "O'yinlar yordamida ingliz tilini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatish" 2-bet
2. Aripova. A.K "Ancient Uzbek Tribes and Clans Inhabiting In Central Asia. The American Journal of Social Science and Education Innovations"28-bet
3. Hasanboy Rasulov "Ingliz tilida qiziqarli o'yinlar" 1-2-bet
4. Xurshidabonu Ziyatova "Ingliz tili darslarini qanday qiziqarli o'tish mumkin?" 2-bet
5. Makhmudova G.B. The Development of Scientific Theories of Metaphor Translation from the Cultural Point of View. International Journal on Integrated Education 6 (5), 329-332